



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI


ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR G‘AZALLARIDAGI MUSIQA TERMINLARNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

### LINGUOPRAGMATIC ANALYSIS OF MUSICAL TERMS IN THE GHAZALS OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR

Eshbo‘tayeve Shohsida Toshnazarovna

1-kurs doktorant

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

E-mail: [shohsidaeshbotayeve92@gmail.com](mailto:shohsidaeshbotayeve92@gmail.com)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-6533-7155>

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./NFLM8820](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./NFLM8820)

**Annotatsiya.** *Tadqiqotda musiqa terminlarining Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallarida tutgan o‘rni lingvopragmatik yondashuv asosida tahlil etilgan. Natijada, ijodkor musiqa terminlar orqali oshiq ruhiy holatini bosqichma-bosqich ochib berilganligi, bilvosita nutq aktlari orqali dard, iltijo, e‘tirof kabi kommunikativ maqsadlar ifodalangani aniqlangan.*

**Kalit so‘z:** *badiiy diskurs, kommunikativ maqsad, nutqiy akt, musiqiy tafakkur, badiiy tafakkur.*

**Annotation.** *The study analyzed the role of musical terms in Zahiriddin Muhammad Babur's ghazals based on a linguopragmatic approach. As a result, it was found that the creator gradually revealed the mental state of the lover through musical terms, and indirectly expressed communicative intentions such as pain, supplication, and confession through indirect speech acts.*

**Keywords:** *artistic discourse, communicative purpose, speech act, musical thought, artistic thought.*

Tilshunoslikda lingvopragmatika yo‘nalishning rivojlanishi badiiy matnni yangi nuqtayi nazardan tahlil etish imkonini bermoqda. Xususan, she‘riy matnda qo‘llaniladigan ayrim leksik birliklar o‘zi anglatadigan ma‘nodan tashqari, muayyan pragmatik mazmunni ham ifodalashga xizmat qiladi. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida uchraydigan musiqa terminlari ana shunday leksik birliklar sirasiga kiradi.

She‘riyatga bo‘lgan iqtidorini musiqiy ilmi bilan bog‘lay olgan ijodkor sifatida e‘tirof etiladigan Zahiriddin Muhammad Bobur ijodini tahlil etish jarayonida nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik, musiqashunoslik nuqtayi nazardan mushtarak yondashish muhimdir. Ijodkorning yuksak badiiy tafakkur egasi ekanligi va uni mohirlik bilan ramziy ifodaga ko‘chira olganligini musiqa terminlarini badiiy nutqning muhim tarkibiy qismiga aylantira olganligida ham ko‘rish mumkin. Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida qo‘llanilgan musiqa terminlari adabiyotshunoslikda badiiy-tasviriy unsur sifatida baholangan bo‘lsa,

tilshunoslikda leksik-semantik hamda struktur jihatdan tadqiq etilgan. Biroq mazkur terminlarning nutqiy vaziyat, kommunikativ akt va adresatga ta'siri masalalari lingvopragmatik nuqtayi nazardan yetarli darajada o'rganilmagan. Ushbu tadqiqotda ijodkor g'azallarida uchraydigan musiqa terminlarning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil etildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur g'azallarida uchraydigan musiqa terminlari asosan fors-tojik va arab tillaridan o'zlashgan terminlar bo'lib, o'sha davr Sharq musiqiy tafakkurining umumiy terminologik tizimini o'zida aks ettiradi. Mazkur terminlar ijodkor lirikasida ikki asosiy ma'noda namoyon bo'ladi:

1. Musiqaga oid tushuncha mazmunida:

Ishrat ichra har qachonkim, *chang* olsang ilginga,

Furqatingda qolgon egri qomatim yod aylagil [Bobur, 2016: 49]

2. Ko'chma ma'noda:

*Soz* aylab bir nishotangez *chang*, ey dilrabo,

*Benavo* ko'nglumni g'am changidin ozod aylagil [Bobur, 2016: 49]

Musiqa terminining badiiy diskursda ramziy ma'no ifodalashi lingvopragmatik tahlil uchun obyekt bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Bobur g'azallarida uchraydigan *nay*, *chang*, *rubob*, *ud*, *navo*, *ohang*, *parda* kabi musiqa terminlari badiiy matn tarkibida o'zi anglatadigan tushunchadan tashqari ramziy ma'no ham ifodalagan. Xususan, “nola”, “fig'on”, “ayriliq”, “dard”, “ishqdan, ayriliqdan kuyish” kabi ma'nolar *nay* termini orqali ifodalangan bo'lsa, “qalb ohangi”, “ichki ovoz” ma'nolarini *navo* birligi vositasida aks ettirgan. Badiiy diskursda qo'llanilgan ushbu terminlar o'zi anglatadigan tushunchadan tashqari shu tushuncha xususiyatiga mos turli ko'chma ma'nolar ham ifodalashi lingvopragmatik nuqtayi nazardan ahamiyatlidir. Jumladan, ijodkor g'azallarida musiqa terminlari bilvosita nutqiy aktlarni yuzaga keltiradi hamda oshiqning *dardi*, *iltijosi* va *e'tirofini* to'g'ridan-to'g'ri emas, balki ramziy shaklda kommunikativ maqsadni ifodalashga ko'maklashadi. Shuningdek, Bobur g'azallarida adresat har doim ham ma'lum emas. Musiqa terminlari, asosan, *yor*, *falak*, *o'zi* va *bilvosita o'quvchiga* murojaat qilinganda qo'llanilgan bo'lib, bu orqali badiiy diskursda o'quvchini faol ishtirokchiga aylanishi ta'minlanadi.

Zahiriddin Muhammad Bobur g'azallarida musiqa terminlari quyidagi pragmatik vazifalarni bajaradi:

1. Oshiq va yor o'rtasidagi uzilgan muloqotni ramziy yo'l bilan tiklash:

Telba ko'nglumkim, sening *changingdadur*, yod aylagil,

Bir *navozish* birla ko'nglumni mening shod aylagil [Bobur, 2016: 49].

2. Ichki kechinmani ochiq aytmasdan ifodalash:

Oh-u vovaylo – *surudim*, dard-u g'am – hamsuhbatim,

Boda – ashkim qoni, kim ko'rdi muningdek bazmi xos? [Bobur, 2016: 37].

3. Lirik nutqning ta'sirchanligini kuchaytirish:

Majlis ichra *chang* birla tortib *ovoz*, ey pari,

Sabr-u hushim juzv-u avroqini barbod aylagil! [Bobur, 2016: 49].



#### 4. O‘quvchini hissiy hamkorlikka chorlash:

Davron g‘amin barbod qil, ishrat uyin obod qil,

Jun-u ko‘ngulni shod qil ovozi *chang-u nay* bila [Bobur, 2016: 97].

Yuqoridagi tahlillardan anglashiladiki, ijodkor musiqa terminlari orqali oshiq ruhiy holatini bosqichma-bosqich ochadi, bilvosita nutq aktlari vositasida dard, iltijo, e‘tirof kabi kommunikativ niyatlarni ifodalaydi. Bu esa Zahiriddin Muhammad Boburning nafaqat badiiy, balki keng musiqiy tafakkur egasi bo‘lganligini ham ko‘rsatadi. Lingvopragmatik yondashuv orqali ijodkor asarlarini tahlil qilish esa ijodkor kommunikativ maqsadining yana ham to‘liqroq anglanishiga yordam beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Pardayev Z. Pragmatik lingvistika. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Samarqand, 2013. – 105 b.
2. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 320 б.
3. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Ёз фасли ёр васли. – Тошкент: Фафур Фулом, 2016. – 200 б.